

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufataxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 42-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABROREBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42





O'ZBEKISTONDA YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN FOYDA SOLIG'INI HISOBLAB CHIQUARISH VA TO'LASH TARTIBI

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekiston Respublikasi Bank – Moliya akademiyasi
Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti magistranti

E-mail: sirojiddinismaylov1986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-1218-8171>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi tahlil etilgan. Soliq solinadigan baza shakllantirilishining huquqiy asoslari, amaldagi stavkalar, vaqtinchalik imtiyozlar tizimi va bo'nak to'lovlarni amalga oshirish mexanizmi ko'rib chiqilgan. O'tkazilgan tahlil foyda solig'ining byudjet daromadlari tarkibida yetakchi o'rin tutishini, 2025-yilgi tushumlar 72,3 trln so'mga yetganini va undan oldingi yilga nisbatan 37 foizga o'sganini ko'rsatmoqda. Maqola yuridik shaxslarga tatbiq etiladigan soliq imtiyozlari va preferensial rejimlarning to'liq tavsifini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: foyda solig'i, yuridik shaxs, soliq solinadigan baza, stavka, soliq imtiyozi, bo'nak to'lov, byudjet daromadlari, chegirma, soliq hisoboti.

Аннотация. В данной статье анализируется порядок исчисления и уплаты налога на прибыль юридическими лицами в Республике Узбекистан. Рассмотрены правовые основы формирования налогооблагаемой базы, действующие ставки, система временных льгот и механизм осуществления авансовых платежей. Проведённый анализ показывает, что налог на прибыль занимает ведущее место в структуре доходов бюджета: поступления за 2025 год достигли 72,3 трлн сумов, что на 37 процентов больше по сравнению с предыдущим годом. Статья содержит полное описание налоговых льгот и преференциальных режимов, применяемых в отношении юридических лиц.

Ключевые слова: налог на прибыль, юридическое лицо, налогооблагаемая база, ставка, налоговая льгота, авансовый платёж, доходы бюджета, вычет, налоговая отчётность.

Annotation. This article analyses the procedure for calculating and remitting corporate profit tax by legal entities in the Republic of Uzbekistan. The legal foundations for determining the taxable base, applicable tax rates, the system of temporary tax incentives, and the mechanism for making advance payments are examined. The analysis demonstrates that profit tax holds a leading position in the structure of budget revenues: receipts for 2025 reached 72.3 trillion soums, representing an increase of 37 percent compared to the previous year. The article provides a comprehensive description of tax incentives and preferential regimes applicable to legal entities.

Keywords: profit tax, legal entity, taxable base, tax rate, tax incentive, advance payment, budget revenues, deduction, tax reporting.

KIRISH

Foyda solig'i O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish hamda iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [1]. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, soliq yukini kamaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va ish yuritishni soddalashtirish yo'nalishidagi chora-tadbirlar foyda solig'i mexanizmini tubdan o'zgartirdi [2].

Yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari foyda solig'ini turli tartibda to'laydi. Rezident yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqarida olingan barcha foydadan soliq to'lasa, norezident yuridik shaxslar faqat O'zbekistondagi manbaadan olingan daromaddan soliqqa tortiladi





[3]. Ushbu ikki toifa o'rtasidagi farqni bilish amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, chunki norezidentlar foydasi ushlab qolish soliq mexanizmi orqali byudjetga o'tkaziladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, 2024–2026-yillarda Soliq kodeksiga bir qator tub o'zgarishlar kiritilgan, shu jumladan elektron savdo subyektlari uchun stavka o'zgartirilgan, yangi vaqtinchalik imtiyozlar joriy etilgan va bo'nak to'lovlar tartibi takomillashtirilgan [4; 5]. Mazkur o'zgarishlarni tizimli tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblash va to'lashning amaldagi tartibini ilmiy asosda tahlil etish, mavjud imtiyozlar tizimini baholash va byudjet tushumlari dinamikasini umumlashtirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu yuzasidan chop etilgan ilmiy tadqiqotlar foyda solig'ining turli jihatlarini qamrab oladi. Ismaylov S.I. va A.Vahobov [1; 2] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda foyda solig'ini hisoblash usullari tahlil etilgan, soliq bazasini shakllantirishning mavjud muammolari ko'rsatilgan va soliq tizimini soddalashtirish taklif etilgan. Muallif(lar) jami daromaddan ruxsat etilgan chegirmalarni chegirib tashlash orqali soliq solinadigan bazani aniqlash usuliga alohida e'tibor qaratgan, ammo amaliyotda chegirmalarning to'liq ro'yxatini belgilashda tushunmovchiliklar saqlanib qolayotganini qayd etgan.

Zaripov X.B. [3] foyda solig'i tizimini soliq siyosatining keng mazmunida ko'rib chiqqan. Tadqiqotchi O'zbekiston davlat byudjetining asosiy daromad manbasi sifatida soliqning tutgan o'rni, soliq tizimini soddalashtirish va biznes muhiti uchun raqobatbardoshlikni oshirish zaruriyati masalalarini xorijiy va mahalliy olimlar qarashlari bilan solishtirib tahlil etgan. Ushbu tadqiqot foyda solig'ining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini belgilashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Rafiyeva Z.H., Islomova S. va Ibodova M. [4] yuridik shaxslardan foyda solig'ini undirish va byudjetga to'lash tartibining amaliy jihatlarini o'rganishga e'tibor qaratishgan. Mualliflar soliq hisobotini tuzish va vakolatli organlarga taqdim etishdagi amaldagi talablarni batafsil bayon etgan. Yangieva N.S. [5] esa bo'nak to'lovlar mexanizmiga maxsus tahlil bag'ishlagan: maqolada bo'nak to'lovlarning hisobot choragida to'g'ri taqsimlanishi, ular hajmini aniqlashda avvalgi yilgi soliq summasidan foydalanish tartibi va korxonalar faoliyatini optimallashtirish nuqtai nazaridan bo'nak miqdori maqbulligini baholash masalalari yoritilgan.

Turayev A.A. va Qurolboyev U. [6] 2026-yilgi Soliq kodeksiga tayanib, asosiy stavka barqarorligi va tarmoqqa xos imtiyozlar mexanizmini xalqaro amaliyot bilan qiyosiy tahlil qilishgan. Vahobov A.V. va Jo'rayev A.S. [8] soliqlar va soliqqa tortish bo'yicha fundamental darslikda foyda solig'i nazariy asoslarini tizimli bayon etgan va mazkur soha bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarning metodologik zaminini shakllantirgan. Pashaxodjayeva D.D. [9] kechiktirilgan soliq aktivlari hisobini xalqaro standartlar, jumladan IFRS bilan uyg'unlashtirish masalalarini





o'rganib, milliy buxgalteriya hisobi tizimi takomillashuvi yo'nalishlarini asoslab bergan. Ayrim tadqiqotlarda [1; 3; 6] imtiyozlar doirasi va ularning iqtisodiy samara berish mexanizmlari atrofida ilmiy munozaralar mavjud bo'lsa-da, mavjud adabiyotlarda 2024–2026-yillardagi keyingi o'zgarishlar yetarli darajada o'rganilmagan, bu esa ushbu maqolaning asosiy ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksi [7], Soliq qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari [10] va sohaga oid ilmiy maqolalar [1–6; 8; 9] asosida o'tkazildi. Tadqiqot huquqiy tahlil (normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish), taqqoslama tahlil (turli toifadagi soliq to'lovchilarni solishtirish) va statistik tahlil (byudjet tushumlari dinamikasini baholash) kabi usullarni o'z ichiga oladi. Huquqiy-dogmatik tahlil metodi orqali normaning mohiyati va qo'llanilish doirasi oydinlashtirildi. Induksiya usuli yordamida alohida tarmoq imtiyozlaridan umumiy soliq siyosatining tamoyillarigacha bo'lgan mantiqiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Foyda solig'ini hisoblashning umumiy tartibi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra [7], yuridik shaxslar foyda solig'ining soliq solinadigan bazasi jami daromad va ruxsat etilgan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Jami daromad tovar sotish, xizmat ko'rsatish, foizlar, dividendlar, royalti va boshqa barcha daromad turlarini qamrab oladi [1; 2]. Chegirmalar qatoriga mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, mehnat haqi va ijtimoiy to'lovlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara to'lovlari, sug'urta va boshqa huquqiy asosda tasdiqlangan xarajatlar kiradi. Quyidagi jadvalda soliq solinadigan bazani aniqlashning bosqichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani hisoblash bosqichlari

№	Bosqich	Mazmuni
1	Jami daromad	Barcha manbalardan olingan daromadlar yig'indisi
2	Chegirmalar	Qonunda ruxsat etilgan xarajatlar: ishlab chiqarish, mehnat haqi, amortizatsiya va boshqalar
3	Soliq solinadigan foyda	Jami daromad – chegirmalar
4	Bo'nak to'lovlar	Hisobot choragining 1-oyida avvalgi yil soliq summasining 1/12 ulushi to'lanadi
5	Yakuniy hisob-kitob	Hisobot yili tugagach 15-mart (jismoniy shaxslar) yoki 1-aprelgacha (yuridik shaxslar)

Manba: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi [7]; Ismaylov S.I., A.Vahobov. [1; 2] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Amaldagi stavkalar va imtiyozlar tizimi. 2025-yilga kelib O'zbekistonda foyda solig'ining asosiy stavkasi 15 foiz etib belgilangan bo'lib, bu ko'rsatkich O'rta Osiyo mintaqasida raqobatbardosh darajada hisoblanadi [3; 6]. Biroq soliq qonunchiligi bir qator differensial stavkalar va vaqtinchalik imtiyozlarni ko'zda





tutadi [7]. Jumladan, 2025-yilda elektron savdo orqali tovar va xizmat realizatsiya qiluvchi soliq to'lovchilar uchun stavka 7,5 foizdan 10 foizga oshirilgan, bu o'zgarish raqamli iqtisodiyot subyektlaridan soliq yukini optimallashtirish siyosatining davomi sifatida baholanmoqda [4; 7]. Imtiyozli stavkalar va ularning huquqiy asoslari 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

O'zbekistonda foyda solig'ining amaldagi stavkalari (2025–2026)

Soliq to'lovchi toifasi	Stavka (%)	Huquqiy asos
Umumiy tartibdagi yuridik shaxslar	15%	SK 337-modda
Elektron savdo (internet orqali tovar/xizmat sotuvchilar)	10%	SK 337-modda (2025-yil o'zgarishi)
Umumiy ovqatlanish korxonalari (2025–2028)	7,5%	PF-132-son, 30.08.2024
Nashriyot-matbaa faoliyati (2025–2029)	0%	SK 483-modda
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (ishga tushirilgan oydan 3 yil)	0%	SK 337-modda
IT park rezidentlari (2025–2030, eksport hajmi >10 mln USD)	0%	SK 483-modda

Manba: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi [7]; Turayev A.A., Qurolboyev U. [6]; Soliq qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari [10] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bo'nak to'lovlar tartibi. Yangieva N.S. [5] tadqiqotida batafsil yoritilganidek, yuridik shaxslar foyda solig'ini hisobot davri mobaynida bo'nak to'lovlar ko'rinishida to'laydi. Har bir hisobot choragining birinchi oyida avvalgi soliq davrida hisoblangan foyda solig'i summasining o'n ikkinchi ulushi byudjetga o'tkaziladi. Ushbu mexanizm davlat byudjetiga soliqlarning bir tekis va bashorat qilingan tarzda kelib tushishini ta'minlaydi va korxonalarning pul oqimlarini rejalashtirish imkonini beradi. Hisobot yili yakunida soliq to'lovchi amaldagi soliq sumasini bo'nak to'lovlar bilan solishtiradi va farqni to'ldiradi yoki ortiqcha to'langan miqdorni qaytarish uchun ariza beradi [5; 7].

3-jadval

O'zbekistonda 2025-yil soliq tushumlari tarkibi

Soliq turi	2025-yil tushumlari (trln so'm)	O'sish (2024-yilga nisbatan)	Ulushi (%)
Foyda solig'i	72,3	+37%	29%
Qo'shilgan qiymat solig'i	45,2	+14%	18%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	42,4	+20%	17%
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	25,8	+28%	10%
Aksiz solig'i	20,0	+13%	8%
Boshqa soliq va yig'imlar	42,1	–	18%
JAMI	247,8	+24%	100%


Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari [10].

Byudjet tushumlari dinamikasi. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yilgi ma'lumotlariga ko'ra [10], respublika bo'yicha jami soliq tushumlari 247,8 trln so'mni tashkil etgan va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga



nisbatan 24 foizga yuqori. Foyda solig'i 72,3 trln so'm bilan jami tushum hajmida 29 foizlik ulushni egallagan va 2024-yilga nisbatan 37 foizga o'sgan. Bu ko'rsatkich foyda solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi yetakchi roli hamda islohot natijasida soliq bazasining kengayganligi va tartib-intizomning yaxshilanganligini ko'rsatadi [6; 10]. Jami soliq turlari kesimidagi tushum ma'lumotlari 3-jadvalda aks ettirilgan.

Pashaxodjayeva D.D. [9] ta'kidlaganidek, foyda solig'i hisobining xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilishi muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda: kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari tushunchasi milliy buxgalteriya hisobida to'liq tatbiq etilmagan. Bu holat xususan xalqaro investorlar uchun moliyaviy hisobot shaffofligini ta'minlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda[9]. Zahobov A.V. va Jo'rayev A.S. [8] o'z darsliklarida belgilashgan soliq nazariyasi tamoyillari – adolatlilik, samaradorlik va aniqlik bugungi O'zbekiston foyda solig'i tizimida qisman amalga oshirilgan, ammo qonunchilikning barqarorligi va huquq qo'llash amaliyotida birxillik ta'minlash borasidagi islohotlar davom etishi lozim.



1-rasm. Soliq organlarining 2025-yildagi byudjetga tushumlari tahlili

Soliq qo'mitasining rasmiy infografik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi soliq organlari tomonidan byudjetga jami 247,8 trln so'm tushum ta'minlangan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 24 foizga yuqori [10]. Tushum tarkibida foyda solig'i 72,3 trln so'm (ulushi 29%) bilan birinchi o'rinni egallagan va o'sish sur'ati 37 foizni tashkil etgan, bu esa yuridik shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi va soliq bazasining kengayganligini ko'rsatadi; ikkinchi o'rinda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) 45,2 trln so'm (18%, o'sish 14%) turadi, uchinchi o'rinda esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShODS) 42,4 trln so'm (17%, o'sish 20%) bilan joylashgan. Yer qavridan foydalanganlik uchun soliq 25,8 trln so'm (10%,



o'sish 28%), aksiz solig'i 20 trln so'm (8%, o'sish 13%), soliqsiz tushumlar dividend, boj, yig'im va jarimalar 19,5 trln so'm (8%, o'sish 31%) ni tashkil etgan; nisbatan kichik ulushni yer solig'i 10 trln so'm (4%, o'sish 22%), mol-mulk solig'i 8 trln so'm (3%, o'sish 18%), aylanmadan olinadigan soliq 3,1 trln so'm (1,2%, o'sish 8%) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 1,4 trln so'm (0,6%, o'sish 21%) egallagan. Ushbu ko'rsatkichlar majmuasi soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining sezilarli darajada oshganini, barcha soliq turlari bo'yicha o'sish dinamikasining musbat ekanligini va foyda solig'i bilan QQSning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ustuvor o'rni saqlanib qolayotganligini tasdiqlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi so'nggi yillarda tubdan yangilangan va tizimli xususiyat kasb etgan. Asosiy stavka 15 foiz sifatida barqarorlashtirilgan bo'lsa-da, differensial stavkalar va vaqtinchalik imtiyozlar mexanizmi soliq siyosatining moslashuvchanligini ta'minlamoqda. 2025-yilda foyda solig'i tushumlari 72,3 trln so'mga yetib, byudjet daromadlarining 29 foizini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 37 foizlik o'sish qayd etildi, bu soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining oshganligini ko'rsatadi. Biroq kechiktirilgan soliq aktivlari hisobini xalqaro standartlar (IFRS) bilan uyg'unlashtirish, norezidentlardan ushlab qolish solig'i tartibini soddalashtirish va soliq imtiyozlarining real iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini joriy etish dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Kelgusida tadqiqotlar alohida tarmoq imtiyozlarining investitsiya faolligiga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholashga, shuningdek bo'nak to'lovlar mexanizmini takomillashtirishga qaratilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismaylov S.I., Qulmatova D.H. O'zbekistonda foyda solig'ini hisoblash usullari // Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – Vol. 3, No. 7. – B. 20–23. – URL: <https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/5053>
2. A.V.Vahobov, A.S.Jo'rayev. Soliqlar va soliqqa tortish. oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. TMI. 2009.
3. Zaripov X.B. Profit Tax in Uzbekistan // American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2023. – Vol. 12. – P. 47–53. – URL: <https://americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/809>
4. Rafiyeva Z.H., Islomova S., Ibodova M. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini hisoblash va budjetga undirish tartibi // International Journal of Scientific Researchers. – 2025. – URL: <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/21837>





5. Yangieva N.S. Foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarni to'lash tartibi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – T. 3, № 5. – B. 11–15. – URL: <https://zenodo.org/records/15570369>
6. Turayev A.A., Qurolboyev U. Profit Tax Rates and Incentives in Uzbekistan // Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2026. – Vol. 13, No. 03. – P. 869–874. – URL: <https://eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/5688>
7. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, amaldagi tahrir. – URL: <https://lex.uz/docs/4674902>
8. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2009. – 448 b.
9. Pashaxodjayeva D.D. Foyda solig'i bo'yicha kechiktirilgan soliq aktivlari hisobini xalqaro integratsiyalashuvi sharoitida takomillashtirish // Ilmiy maqola. – 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. 2025-yilda soliq tushumlari 247 trln so'mdan oshdi: rasmiy axborot. – 2025. – URL: <https://soliq.uz>



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**